

IQTISODIY PROTSESSDA ADVOKATNING ISHTIROKI**O‘rinova Sabina Sharifboy qizi**

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti,

“Huquq” kafedrası, Yurispredensiya yo‘nalishi talabasi.

Urgench, O‘zbekiston.

Babajonov Farrux

Ilmiy raxbar.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18585552>

Annotatsiya. Ushbu maqolada iqtisodiy protsesslarda advokatning huquqiy maqomi, vakolatlari va jarayondagi ishtiroki o‘rganiladi. Unda advokatning tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanuvchi subyektlarning sudda himoya qilishdagi o‘rni, protsessual huquq va majburiyatlari, shuningdek sud ishlarini malakali yuritish orqali iqtisodiy nizolarni hal etishdagi ahamiyati yoritiladi. Rivojlangan mamlakatlarda advokat faoliyatini kafolatining o‘ziga xosligi tahlil qilinadi. Maqolada O‘zbekiston Respublikasida advokatlar faoliyatini tartibga soluvchi milliy qonunchilik me‘yorlari ko‘rsatilib, xorij tajribasi bilan qiyosiy tahlil ham beriladi.

Shuningdek, sud jarayonlarida shaffof va adolatli qarorlar qabul qilinishida advokatlarning ishtirokini takomillashtirish yuzasidan taklif va tavsiyalar ilgari suriladi.

Kalit so‘zlar: iqtisodiy protsess, huquqiy pozitsiya, arbitr, mediatsiya kelishuvi, xalqaro arbitraj, xo‘jalik subyektlar.

PARTICIPATION OF AN ATTORNEY IN ECONOMIC PROCEEDINGS

Abstract. This article examines the legal status, powers and participation of attorney in economic proceedings. It highlights the role of attorney in the protection of business entities in court, their procedural rights and obligations, as well as the importance of resolving economic disputes through competent litigation. The specificity of the guarantee of the attorney's activities in developed countries is analyzed. The article presents the national legislative norms regulating the activities of attorneys in the Republic of Uzbekistan, and provides a comparative analysis with foreign experience. It also puts forward proposals and recommendations for improving the participation of lawyers in making transparent and fair decisions in judicial proceedings.

Key words: economic proceed, legal position, arbiter, mediation agreement, international arbitration, economic entities.

Bugungi kunda iqtisodiy munosabatlar va iqtisodiy faoliyatning kengayishi bilan birga xo‘jalik subyektlari, tadbirkorlar va boshqa shu sohadagi subyektlar o‘rtasidagi huquqiy nizolar, kelishmovchiliklar va da‘volar soni ham ortib bormoqda. Advokat iqtisodiy protsessda nafaqat mijozning manfaatini himoya qiladi, balki sudda adolatlilik, qonuniylik va shaffoflikni ta‘minlashga ham xizmat qiladi. Uning kasbiy malakasi, huquqiy bilim darajasi va sud jarayoniga tayyorligi ish natijasiga bevosita ta‘sir ko‘rsatadi. Shuning uchun iqtisodiy sudlarning faoliyati, ayniqsa ularda advokatning ishtiroki masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Mazkur maqolaning maqsadi iqtisodiy protsesslarda advokatning ishtirokini amaliy va nazariy jihatdan tahlil qilish, ularning huquqiy maqomi, vazifalarini aniqlab, bu tizimda mavjud bo‘lgan muammolarni bartaraf etish bo‘yicha takliflar ishlab chiqishdan iborat.

Mazkur maqolada advokat tushunchasining yuridik tabiati ochib berilgan. Muallif iqtisodiy protsessda advokat ishtirokining muhimligini ilmiy-huquqiy jihatdan o‘rgangan.

Iqtisodiy protsessda milliy va xalqaro qonunchilik o'rtasidagi farqli jihatlar tahlil qilingan. Ushbu maqola doktrinal tadqiqot sifatida qonun hujjatlari va ilmiy-nazariy manbalar tahlilini o'z ichiga oladi. Unda bu sohaga oid ilmiy tushunchalar va qonunchilikdagi normalar o'rganilgan. Maqola mavzuga oid asosiy tushunchalarni o'rganishdan boshlangan, ushbu tushunchalarni rivojlantirish bilan davom ettirilgan hamda mavjud mexanizmlarni takomillashtirish, muammolarni hal qilish yo'llarini ko'rsatishga oid xulosalarga kelish bilan yakunlangan. Mazkur xulosalarning amaliyotga tatbiq etilishi mamlakatimizda advokatlar faoliyatining rivojiga xizmat qiladi.

Maqolani yoritish jarayonida ilmiy bilishning mantiqiylik, izchillik va obyektivlik usullaridan keng foydalanildi.

Iqtisodiy protsess – bu xo'jalik yurituvchi subyektlar o'rtasida vujudga keladigan nizolarni sud tartibida ko'rib chiqish va hal etishga qaratilgan huquqiy jarayondir. Bu jarayonda sud organlari yuridik shaxslar, tadbirkorlar va davlat tuzilmalari o'rtasidagi mulkiy manfaatlar, shartnoma orqali kelib chiquvchi majburiyatlar va iqtisodiy munosabatlar orqali vujudga keladigan da'volarni ko'rib chiqadi hamda ularni qonunga asoslangan holda hal etadi.

Advokat (*lotincha* *advokatus*, *advocare* – *yordamga chaqirish*) – yuridik xizmat ko'rsatuvchi shaxs. Oliy yuridik ma'lumotga ega bo'lgan va avokatlik faoliyati bilan shug'ullanish huquqini beruvchi litsenziyani belgilangan tartibda olgan O'zbekiston Respublikasi fuqarosi O'zbekiston Respublikasida advokat bo'lishi mumkin. O'zbekiston Respublikasining "Advokatlik faoliyati kafolatlari va advokatlarning ijtimoiy himoyasi to'g'risida"gi Qonuniga muvofiq, advokat o'z faoliyatini mustaqil, hech bir organ yoki mansabdor shaxsning aralashuvisiz amalga oshiradi. Bu esa uning iqtisodiy protsessdagi maqomini mustahkamlaydi va sudda erkin fikr bildirish, dalillarni taqdim etish va huquqiy pozitsiyani himoya qilish imkonini beradi.

Advokatning iqtisodiy sudda ish yuritish uchun vakolatlari O'zbekiston Respublikasining "Advokatlik faoliyati kafolatlari va advokatlarning ijtimoiy himoyasi to'g'risida"gi Qonunga muvofiq tasdiqlanadi. Iqtisodiy protsessual kodeksning 61-moddasiga ko'ra, sudda yuridik shaxslarning ishlarini ularning qonunchilikda yoki ta'sis hujjatlarida berilgan vakolatlar doirasida harakat qiladigan organlari va (yoki) vakillari yuritishi va fuqarolar o'z ishlarini sudda shaxsan o'zlari va (yoki) vakillari orqali yuritishga haqliligi belgilangan. Bundan tashqari, ushbu moddada muomalaga layoqatsiz yoki muomala layoqati cheklangan shaxslarning huquqlari va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini sudda ularning qonuniy vakillari (ota-onalari, ularni farzandlikka olganlar, vasiylar yoki homiylar) himoya qilishi, qonuniy vakillar sudda ish yuritishni o'zlari tanlagan vakilga topshirishi mumkinligi, agar qonunda bu bevosita nazarda tutilmagan bo'lsa shartnoma bo'yicha (ixtiyoriy) sudda vakil bo'lishi mumkin bo'lgan shaxslar orasida advokat birinchilardan bo'lib sanab o'tilgan.

Iqtisodiy protsessual kodeksda advokatning iqtisodiy sudda ishonch bildiruvchi nomidan ish yuritishda order va (yoki) ishonchnoma asosida vakillik qilishi belgilangan. Xususan, Iqtisodiy protsessual kodeksning 62-moddasida vakilning sudda ish yuritishga doir vakolatlari qonunga muvofiq berilishi va rasmiylashtirilgan ishonchnomada ko'rsatilgan bo'lishi kerakligi belgilangan bo'lib bu rasmiylashtirilgan ishonchnoma advokatga uni vakil qilgan shaxs nomidan qanday protsessual harakatlarni amalga oshirish huquqi berilganini va sudda ish yuritish vakolatlari mavjudligini ko'rsatadi.

Hech kimning advokatdan va uning ishonch bildiruvchisidan advokatning ishga kirishishi uchun yuridik yordam ko'rsatish bo'yicha kelishuv taqdim etishni talab qilishga haqqi yo'q.

Vakillik rasmiylashtirishning belgilangan tartibiga rioya etilmaganda advokat sud tomonidan jarayonda qatnashishga qo'yilmaydi.

Qonunchilikda u yoki bu ish ko'rilishida advokat ishtiroki imkoniyatining cheklovlari mavjudligi belgilangan. Aytish mumkinki, agar advokatlarga nisbatan "Advokatura to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuning 7-moddasida ko'zda tutilgan to'sqinliklar mavjud bo'lsa, ular iqtisodiy sudda vakillik qila olmaydilar, aynan:

- agar advokat ishonch bildiruvchi bilan kelishuv predmeti bo'yicha ushbu shaxsning manfaatlaridan farqli o'z manfaatiga ega bo'lsa;
- agar advokat ishda sudya, hakamlik sudyasi yoki arbitr, vositachi, prokuror tergovchi, surishtiruvchi, ekspert, mutaxassis, tarjimon bo'lib qatnashgan bo'lsa, ushbu ish bo'yicha jabrlanuvchi yoki guvoh bo'lsa, shuningdek agar u ushbu shaxs manfaatlariga qaror qabul qilish vakolatiga ega bo'lgan mansabdor shaxs bo'lgan bo'lsa;
- agar advokat ushbu shaxs ishini surishtirishda yoki ko'rib chiqishda ishtirok etgan yoki etayotgan mansabdor shaxs bilan qarindoshlik yoki oilaviy munosabatlarda bo'lsa;
- agar advokat ushbu shaxsning manfaatlariga zid manfaatli ishonch bildiruvchiga yuridik yordam ko'rsatayotgan bo'lsa.

Advokatning sudda cheklovlari bilan birga uning asosiy vakolatlarini ham aytib o'tish lozim. Uning bu jarayondagi asosiy vakolatlariga quyidagilar kiradi:

- da'vo arizalarini tayyorlash va uni sudga taqdim qilish;
- sud majlislarida mijoz manfaatlarini himoya qilish;
- ish bo'yicha hujjatlarni o'rganish, dalillarni tahlil qilish va ularni sudga taqdim qilish;
- kelishuv bitimlari yoki yarashuv shartlarini ishlab chiqishda ishtirok etish;
- sud qarorlariga nisbatan shikoyat yoki protest raizalarini kiritish va boshqalar.

Advokatning faoliyati mijoz manfaatlarini himoya qilish bilan cheklanmaydi, balki sud jarayonida qonuniylik va adolatlilikni ta'minlashga ham xizmat qiladi. Chunki har bir advokatning burchi – qonu doirasida harakat qilib, iqtisodiy nizolarni adolatli hal etishga hissa qo'shishdir.

Advokat iqtisodiy ish doirasida, agar u himoya ostidagi shaxs (ishonch bildiruvchi subyekt) bilan doimiy huquqiy xizmat ko'rsatish shartnomasi asosida ishlasa, himoya ostidagi shaxsga ishonchli huquqiy himoya ko'rsatishni ta'minlashi lozim. Himoya ostidagi shaxs manfaatlarini huquqiy himoya qilishning qurilishi va amalga oshirilishi masalasi yuksak yuridik texnika darajasida tuzilishi lozim bo'lgan shunday shartnoma loyihasi matnini tayyorlash va bu shartnomani tuzish bosqichidayoq dolzarblik kasb etishi lozim. Iqtisodiy shartnomaning mazmuniga qo'yiladigan talablar O'zbekiston Respublikasi "Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida"gi Qonuning 10-moddasi bilan tartibga solingan.

Iqtisodiy shartnomaning muhim shartlaridan biri sifatida qonunchilik bahslarini hal etish tartibini ajratib ko'rsatadi. Ushbu shartlar o'zida uchta huquqiy jihatni qamrab oladi:

- bahsni hal etishning sudgacha tartibiga rioya etish to'g'risidagi yo'l yo'riq;
- tomonlarning shartnomaviy biror sudga oidlikning belgilanishi masalasi;
- O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 246-moddasiga ko'ra shartnomani ijro etish joyi, chunki da'vogarning O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy protsessual kodeksiga muvofiq shartnomaning ijro etilish joyi bo'yicha tanlashi yuzasidan sudga oidlik shunga bog'liq bo'lishi mumkin.

Iqtisodiy nizolarni hal etishda advokat bir nechta usullardan foydalanadi. Ya'ni sudgacha muzokara (meditatsiya) – advokat tomonlar o'rtasida kelishuvga erish, murosali yechim topish uchun muzokaralar olib boradi; sud orqali nizolarni hal etish – advokat sud jarayonida ishtirok etib, dalillar keltiradi, huquqiy asoslarni himoya qiladi va qaror qabul qilishda faol rol o'ynaydi; apellatsiya yoki kassatsiya tartibida shikoyat berish – agar birinchi instansiya sudi qarorida xatolik bo'lsa, advokat yuqori sud instansiyalariga murojaat qilib, adolatli qaror chiqishini ta'minlaydi.

Boshqa mamlakatlarning qonunchiligida belgilangan normalarni o'rganish natijalari shuni ko'rsatdiki, bir qator xorijiy davlatlar amaliyotida ham ushbu masalada milliy qonunchiligimizdagi kabi yondashuvlar mavjud. Jumladan, Rossiya Oliy arbitraj sudi Plenumining "Rossiya Federatsiyasining Arbitraj protsessual kodeksini amalga kiritish bilan bog'liq ayrim masalalari to'g'risida"gi qarori 11-bandiga ko'ra, advokat ishonch bildiruvchiga ishonchnoma asosida vakillik qilishi, federal qonunlarda belgilangan boshqa hollarda esa, tegishli advokatlik tuzilmasi tomonidan berilgan order asosida vakillik qilishi mumkin.

Qozog'iston Fuqarolik protsessual kodeksining 61-moddasiga ko'ra, muayyan bir ish bo'yicha advokatning vakolatlari qonunda belgilangan tartibda advokatlik guvohnomasi va vakillikni tasdiqlovchi yozma ma'lumotnoma bilan tasdiqlanadi. Kodeksning 60-moddasi birinchi qismida ko'rsatilgan protsessual harakatlarning advokat tomonidan amalga oshirilishi ishonchnoma bilan tasdiqlanadi. Biroq Avstriyada advokatning fuqarolik protsessidagi huquqlari o'zgacha bo'lib, ushbu mamlakat Fuqarolik protsessual kodeksining 26-moddasiga muvofiq, ishda ishtirok etuvchi tomonlar o'z manfaatlarini mustaqil ravishda yoki vakil orqali himoya qilishlari mumkin. Tuman sudlarida da'vo qiymati 5 ming evrodan ortiq bo'lgan ishlarni ko'rib chiqishda advokatning ishtiroki majburiydir. Ishni ko'rib chiqishda advokat o'z tashabbusi bilan o'z vakolatlarini boshqa advokatga yoki advokat yordamchisiga berishi mumkin. Advokatning jarayonda ishtirok etish huquqi advokatlar kollegiyasi tomonidan berilgan guvohnoma bilan tasdiqlanadi.

Advokat faoliyatining xorijiy mamlakatlar va milliy qonunchilik tizimi orqali tartibga solinishining bir nechta o'xshash va farqli jihatlari mavjudligini yuqorida ko'rsatilgan ma'lumotlardan ham bilib olish mumkin. Ya'ni advokat faoliyatining o'xshash jihatlari huquqiy maqomning mustaqilligi, mijoz manfaatini himoya qilish, kasbiy sir saqlash, adolatli sudlov tamoyiliga xizmat qilish kabilarni kiritsak, farqli jihatlari tashkiliy tuzilma va litsenziyalash tartibi, sud amaliyotida advokatning vakolat doirasi, huquqiy yordamning pulli va bepul shakllari, mediatsiya va arbitraj tizimi kabi jihatlari mavjud. Umuman olganda, xalqaro va milliy qonunchilikda advokatlik faoliyatining maqsadi bir. Farqli jihatlar esa asosan har bir mamlakatning huquqiy tizimi, tarixiy rivojlanishi va sud amaliyotining o'ziga xosligidan kelib chiqadi.

Xulosa qilib aytganda, iqtisodiy protsessda advokatning ishtiroki – bu faqatgina bir tarafning manfaatlarini himoya qilish emas, balki butun sud-huquq tizimining adolat, qonuniylik va shaffoflik tamoyillarini amalda ta'minlash jarayonidir. Advokatning iqtisodiy sudlardagi faol roli orqali tadbirkorlik subyektlari, korxonalar va tashkilotlar o'z huquq va manfaatlarini qonuniy yo'l orqali himoya qilish imkoniga ega bo'ladilar. Bu esa mamlakatda investitsiya muhitini yaxshilash, iqtisodiy ishonchni mustahkamlash va tadbirkorlikni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Afsuski, bu tizimni takomillashtirishda to'sqinlik qilayotgan advokatlarning ayrim iqtisodiy sud ishlarida to'liq ishtirok eta olmasligi yoki ularning fikrlari yetarli darajada inobatga

olinmasligi, iqtisodiy nizolar bo'yicha malakali advokatlar sonining yetarli emasligi, dalillarni to'plash, ekspertiza tayinlash va mediatsiya jarayonlarida advokatlarning vakolatlari cheklanganligi, sud-huquq tizimida raqamlashtirish jarayonlari sust kechayotgani tufayli hujjat almashinuvi va ish yuritishning qog'ozbozlik asosida qolayotgani kabi bir qator muammolar ham mavjud. Bu muammolarga yechim sifatida iqtisodiy sudlarda advokatlarning protsessual vakolatlarini kengaytirish, ularning fikrini sud qarorlarini qabul qilishda majburiy e'tiborga olish tizimini joriy etish, advokatlar uchun iqtisodiy huquq va xalqaro arbitraj bo'yicha malaka oshirish kurslarini muntazam yo'lga qo'yish, mediatsiya va arbitraj jarayonlarida advokatlarning faol ishtirokini rag'batlantirish, shu orqali sudgacha bo'lgan nizolarni tinch yo'l bilan hal etish mexanizmlarini kuchaytirish, raqamlashtirish jarayonida advokatlar ishtirokini kengaytirish, xalqaro tajribadan kelib chiqib, advokatlik faoliyatining mustaqilligini yanada mustahkamlash va kasbiy sirni himoya qilish kafolatlarini kuchaytirish kabi taklif va yechimlar yuqoridagi muammolarni bartaraf etishga ko'maklashadi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Advokatura. Darlik. Mualliflar jamoasi. –Toshkent: TDYU, 2019.
2. O'zbekiston Respublikasining Iqtisodiy protsessual kodeksi.
3. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi.
4. O'zbekiston Respublikasining "Advokatlik faoliyati kafolatlari va advokatlarning ijtimoiy himoyasi to'g'risida"gi Qonun. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 01.12.2020-y., 03/20/651/1577-son; Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son; 04.08.2022-y., 03/22/786/0705-son; 21.09.2024-y., 03/24/963/0735-son.
5. O'zbekiston Respublikasining "Advokatura to'g'risida"gi Qonuni. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 12.10.2018-y., 03/18/497/2044-son; 16.01.2019-y., 03/19/516/2484-son; 24.05.2019-y., 03/19/542/3177-son, 11.09.2019-y., 03/19/566/3734-son; Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son, 03.02.2022-y., 03/22/749/0101-son; 04.08.2022-y., 03/22/786/0705-son; 10.08.2023-y., 03/23/862/0578-son; 07.02.2024-y., 03/24/905/0106-son; 22.02.2024-y., 03/24/911/0142-son; 28.02.2024-y., 03/24/915/0160-son; 07.02.2025-y., 03/25/1025/0116-son.
6. O'zbekiston Respublikasining "Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni.